

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TA’LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI  
O‘QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

**xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami**

**2024-yil 17-may**

**Сборник материалов международной научно-практической  
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ  
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**17 мая 2024 года**

**Collection of materials of the international scientific and practical conference**

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE  
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

**May 17, 2024**

**Guliston – 2024**

Маънавий (а) 1. Относительно внутренней духовной жизни человека. Духовные потребности. Моральная помощь. Ёш ўқитувчининг ҳар бир иши зағчақўз домлага маънавий жиҳатдан ҳам, моддий жиҳатдан ҳам зарба эди. П.Турсун, Ўқитувчи. 2. айн.моральное. Моральный облик человека.

Маънавият (ахлоқий ҳолат; барча ахлоқий нарсалар, хусусиятлар). Инсониятнинг фалсафий, ҳуқуқий, илмий, бадий, диний, ахлоқий ва ш.к. тасаввурлари ва мушунчалари мажмуи. Маънавият-инсоннинг, халқнинг, жамиятнинг, давлатнинг куч-қудратидир.(Ўзбек тилининг изоҳли луғати, А.Мадвалиев таҳрири остида, – Тошкент, 2006-2008, 555 бет.).

Выводы. В развитии человеческого общества в качестве первоосновы сформировались материальные потребности. В результате культурного развития и развития общественного сознания духовные потребности стали неотъемлемой частью человеческого общества. Появились концепции духовности. Лексические единицы образовались как их выражение. Общечеловеческие ценности, сформировавшиеся в процессе первоначального развития, национализировались в соответствии с требованиями среды обитания, образа жизни и условий. На основе этого закона сформировалась российская и узбекская духовная концептосфера [5.]. Лексемы с архетипом «духовность»/«духовность» возникли как языковые выражения концептосферы в результате развития культуры.

### Литература

1. Степанова Е. А. Новая духовность и старые религии // Религиоведение. 2011. № 1. – С. 127-134.
2. Гузенина С. В. Державность и народный патриотизм как фундаментальные составляющие российского менталитета // Вестник Тамбовского университета. Серия «Гуманитарные науки». 2012. № 2 (106). – С. 28-33.
3. Дробжев М. И. Духовность личности как главная составляющая системы непрерывного образования // Гаудеамус. 2006. Т. 1. № 9. – С. 71-78.
4. Гаак Т.П., Коннова С.М. Рассуждения о духовности: филологический аспект // Вестник ОГУ. № 11. 2012. – С. 173-182.
5. Мирхайдарова Н. Ўзбек тилидаги “маънавият” категориясининг иерархик ва идеографик хусусиятлари // Тил ва адабиёт, № 8, 2021.

### ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA HAJVIYOT

*Ubaydullayeva Rayhon Abdujalil qizi, o‘qituvchi, Guliston davlat pedagogika instituti*

*e-mail: [rayhon121274@gmail.com](mailto:rayhon121274@gmail.com)*

*Muslihiddinova Sevinch, talaba, Guliston davlat pedagogika instituti talabasi*  
*[muslihiddinovasevinch@gmail.com](mailto:muslihiddinovasevinch@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalqining sevimli ijodkori Erkin Vohidovning hajviyotida haqiqat jilg‘alari borligi o‘z isbotini topgan, ijodkorning

satirik va yumoristik asarlarining she'riyatdagi o'rni borasida fikr yuritilgan. Xalqning ko'zgusi bo'lgan ijodkor mahorati bir muncha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** satira, yumor, hajviyot, pafos, hazil, kinoya, mubolag'a, tasvir, tashbiya.

Odamlar go'daklikdan tom ma'noda kulish qobiliyatiga ega. Ko'pchiligimiz kulgili komediyalar, hajviy she'rlar va hazillarni yaxshi ko'ramiz. Kulgi hayotdagi eng yaxshi voqealarning, bayramlarning ajralmas qismidir. Biroq biron bir insonning yuziga tabassum hadya etish anchayin murakkab jarayon. Qiziqarli, kulgiga boy latifa va voqea-hodisalarni aytib berish orqali insonlarni kuldirish bir muncha osondek, ammo bunday hodisotlarni badiiyatda she'riy misralarga ko'chirib, lablarga yengil tabassum ulashish esa amri mahol. Kulgi ortiga achchiq haqiqatni yashirish esa, ikki barobar mushkilotdir. Bu borada Abdulla Qodiriy hajviyot nazariyachisi sifatida kulgini tasnif qiladi: "Ichki ma'naviy tomondan kulgilikda uch turlik unsur bor: 1-mutoyaba (sharj ma'nosida), 2-yumor (hajv), 3-satira (ibrat). Shu uch turlik kulgilikni ifoda qilishda yordamchi (vositachi) xizmatini o'taguvchi unsurlar ersa: hazil, kinoya, mubolag'a, tasvir, tashbiya, tamsil, istiora, tatoqqul, tajahul, xalq maqollari va ta'birlari va shunga o'xshashlar" [1, 112-b.].

Hajviya-badiiy adabiyot turlaridan; satira va yumor. Hajviy asarlar tanqidiy ruhda bo'ladi. O'tmishda Sharq xalqlar, shu jumladan, o'zbek adabiyotida, asosan, she'riyat va folklorda mustaqil janr sifatida rivojlangan. Ularda jamiyat hayotining, shuningdek, ayrim guruh yoki shaxslarning aksariyat yomon tomonlari tasvirlanadi. Hajviyada tanqid qilinuvchi ob'yektga qaratilgan kinoyaviy masxaralovchi yoki fosh etuvchi kulgi asarning g'oyaviy mundarijasini va badiiy vositalarini belgilaydi.

Hajviyotning bir bo'lagi bo'lgan satira esa lotinchadan olingan bo'lib, "qurama" degani. Satira komiklik turi, tasvir ob'yektini ayovsiz kulgi vositasi orqali anglash. Voqelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda jamiyatdagi bema'ni, asossiz, noto'g'ri hodisalar, illatlar fosh qilinadi. V. G. Belinskiy satira haqida gapira turib shunday deb yozgan edi: "Satira kamchiliklarni, kishilarning zaif tomonlarini, qabohatlarni masxaralash emas, balki darg'azab hisning hammasi, energiyasi, oliyjanob ideal talabi asosida tug'ilgan g'azabning momaqaldirog'i va chaqmog'i bo'lishi kerak" [2, 345-b.]. Yumor esa lotinchadan olingan bo'lib, kulgi bilan xayrixohlikni o'zida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi. Yengil tanqid, hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi. Satirada ijtimoiy hayot hodisalari zaharxanda kulgi orqali fosh etilsa, xarakterdagi nuqsonlar hazil-mutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor unsuri bo'lganidek, yumorda ham satira unsuri bor. Ammo yumorning hajviyotdan farqi bor. Bu borada Matyoqub Qo'shjonov o'zining "Abdulla Qahhor mahorati" kitobida quyidagicha ta'rif keltiradi: "Hajv bilan yumor orasida Xitoy

devori yo‘qligi ma’lum. Lekin ba’zida hajviyat bilan yumorni ajratish qiyinchilik tug‘diradi. Yumor qatnashmagan hajv bo‘lmaganidek, hajviy ma’no kasb etmagan yumoristik asar ham bo‘lmaydi. Bizning nazarimizda hajviy asar bilan yumoristik asarlar orasidagi farq, avvalo, inkor qilish usuliga, hajviy maqsad uchun qo‘llanilgan yo‘l va vositalarga bog‘liq. Hajviy asarlarda bosh vosita ayovsiz, jiddiy fosh qilish bo‘lsa, yumoristik asarlarda bosh vosita masxara qiluvchi achchiq handadir. Har bir hajviy asarda achchiq handaning ham o‘rni bor. Gap mana shu o‘rinning darajasida. Jiddiy fosh qilish yo‘li bilan yaratilgan hajviy asarlarda achchiq handa qandaydir yordamchi rol o‘ynab ayovsiz fosh qilish yo‘lini yanada qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Yumoristik asarlarda esa achchiq handa bosh rol o‘ynaydi. Sof hajviy asarlarda jiddiy fosh qilish asarning joni, handa tani bo‘lsa, yumoristik asarlarda masxaralovchi handa asarning ham joni ham tanidir” [3, 6-b.].

O‘zbek adabiyotida hajviyotning ilk namunalari dastlab xalq ijodida (terma va aytishuvlarda, Nasriddin Afandi, Aldar ko‘sa obrazlarida) yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyotda taraqqiy etgan. Navoiy, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Hamza, Ayniy, Hoziq, Muqimiy, Zavqiylar ijod qildilar. Keyingi taraqqiyot bosqichlari Hamza, Qodiriy, G‘ozi Yunus, So‘fizoda, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, N. Aminov, S. Siyoyev va boshqalar nomi bilan bog‘liq.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmi namoyondalaridan bo‘lgan Erkin Vohidovning hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti rivojiga, ming yillik ildizlarga ega o‘zbek nazmi daraxtining parvarishiga qo‘shgan hissasi ulkan va ko‘p qirralidir [4, 16-b.]. Ushbu qirralardan biri uning ijodida ham yumor va satira mustahkam o‘rin olganligi.

Vohidov o‘z poetikasiga yuqorida ta’kidlanganidek, kulgi ortiga achchiq haqiqatni yashirishdek mushkulotni singdira olgan sevimli shoirimizdir. Shoir xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlar va ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni shoirona misralarda ifoda etadi. Va she’r misralarda mo’jizakor tarzda hayot haqiqatlari va qusurlari namoyon bo‘ladi. Masalan, ayollardagi o‘ta mehribonlik va rashk tuyg‘usining kamchiliklarini Vohidov “Kamon va o‘q” she’ri orqali mohirona ochib bera olgandir:

Ayol zoti kamon bo‘lar, erkak zoti – o‘q,  
O‘q kamonga ilinadi, boshqa iloj yo‘q.  
Kamon o‘qni tortib mahkam quchmoq bo‘ladi,  
O‘q tortilgan sari yiroq uchmoq bo‘ladi [5, 662-b.].

Bunda ayol kishining nayrangi qirq tuyaga yuk bo‘lishi, “O‘q kamonga ilinadi, boshqa iloj yo‘q” kabi misralarda o‘z yashirin belgisini ko‘rsatib o‘tadi. Unga salbiy jihatdan nazar tashlab to‘rtinchi misradayoq biroz kinoya va hajv bilan “O‘q tortilgan sari yiroq uchmoq bo‘ladi” deb tanganing ikkinchi tomonini nim tabassum ortiga berkitib qo‘yadi.

Bu ikki bayt Vohidov ijodining yumorga oshno ekanligining yaqqol isbotidir. She’riyat jilg‘alaridan biri bo‘lgan hajviya orqali shoir jamiyatda yuz berayotgan tubdan o‘zgarishlarni, ayol va qizlarning ko‘rinishlarini ham mukammal tarzda yoritib berganligi ham, uning qanchalik hajviyotga oshno ekanligini ko‘rsatadi.

QO‘LINGNI PARDALAR QILDING...

Yuzingni bir ko‘ray desam

Qo‘lingni pardalar qilding.  
Zavqiy  
Yor yuzini bir ko‘rmoqqa zor,  
Faryod qilib o‘tdi ustozlar.  
Zamon o‘zga, endi o‘zga yor,  
Na parda bor, na ishva-nozlar.  
Mumtoz shoir qaytsa tirilib,  
O‘zga baytlar aytib ketardi.  
Qo‘lni yuzga pardalar qilib,  
Zamoniga qaytib ketardi [5, 647-b.].

Bu misralarda jamiyatdagi qizlarning yurish-turishi qattiq tanqid ostiga olingandir. Ularning avratlarini ko‘rintirib yuradigan kunlarda, qaytib tirilgan insonning ko‘z yumip o‘z davriga qaytishini istashi, juda ham qo‘rqinchli holat. Holbuki qayta hayotga erishgan insonning o‘limga ham rozi bo‘lishi, qanchalar abgorlikdir.

Vohidov o‘zbeklarning mehmondo‘st ekanligini, ammo bu chegarasiz qadriyatning yomon illatlarini ham o‘z ijodida yumor orqali ochishga harakat qilgandir. Bunda kelgan mehmon oldiga o‘zi yemagan taomlardan qo‘yish, bolasidan qizg‘anib, mehmonni izzat va hurmat qilishi oqibatda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilishini tasvirlaydi:

Meva berma bolangga,  
Asra mehmon xolangga.  
Mahkam berkit, yashavor,  
Qoraytirib tashavor! [5, 646-b.].

Misralarga bezak bo‘lib, unda gavdalanayotga voqealarni ham ko‘z oldimizga keltiraylik. Qanchalar haqiqatga oshnolik mavjud. Boisi har bir o‘zbek xalqi uyiga kelgan mehmonni noz-ne‘matlarsiz ortiga qaytarmaydi.

Mezbon haqida gap ketgan ekan, mehmonni ham eslab ketmoq kerak. Bu mavzuni ham yengil kulgiga solib, ayrim haqiqatlarni ko‘rsatib berolgan Erkin Vohidov shunday deydi:

Xayrlashmay ketar ingliz  
Mezbonini notinch etmaydi  
Donishqishloq ahli, bilingiz  
Xayrlashadi-yu ketmaydi [5, 646-b.].

Bu to‘rt misrani o‘qigan o‘quvchining esiga uyiga mehmon kelgan payt tushishi tabiiydir. Ularning: “Ana ketaman, mana ketaman”, – deb suyuq taomdan so‘ng quyug‘ini ham kutishini eslaydi. Holbuki ularning vaqti ziq edi.

Yoki jamiyatdagi ayrim manman insonlarning fe‘l-atvorini, ularning o‘ziga yuqori baho berib o‘zgalarni mensimaslik hislatlarini atiga bir bayt orqali tasvirlab ko‘rsatgan hajv ustasi Erkin Vohidovdir.

Qoch, chetga o‘t, yo‘l ber yigitga! –  
Deya tog‘ni tepdi chigirtka [5, 646-b.].

Chigirtka timsoli orqali ochib berilgan insonlar jamiyat kushandasidir. Bilamizki, chigirtka yo‘lida uchragan barcha narsalarni yo‘q qilib tashlashga qodirdir. Ammo bir o‘zi bo‘lganda emas. Vohidov o‘z she‘rlari bilan aynan shuni

aytmoqchiki, biz bunday insonlarni jamiyatda ko‘paytirmaslikka harakat qilishimiz darkordir.

Hayot haqiqatlarini marjondek misralarda jilovlagan shoir Erkin Vohidov hajviy yo‘nalishdagi sermahsul ijodi bilan o‘zi sug‘orayotgan ming yillik daraxtni nafaqat sug‘orib, parvarishlagan, balki yangi shoxlar chiqarib yashnashiga sababchi ham bo‘lgan. Hatto jamiyatdagi ayrim kamchiliklarning ham yo‘qolishiga sababchi bo‘lgandir. Axir uning “O‘zbekiston xalq shoiri” unvonini olishi bejizga emas.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov hajviyotini o‘rganmoq bu haqiqatlarga hamnafas bo‘lmoqlikdir. U jamiyat o‘ziga ko‘zgu tutgandek bo‘ladi. Inson ko‘zguga qarab o‘zni tuzatar ekan, jamiyat ham nuqsonlarni tuzatib boradi. O‘zbek xalqining ana shunday ko‘zgusi bo‘lgan Vohidov she‘riyati esa har bir yosh avlod uchun suv va havodek zarur. Boisi ular o‘tmish haqiqatlarini bilib, kelajakka qadam tashlamoqlari zarurdir.

### Adabiyotlar

1. Қодирий А. Кичик асарлар . – Тошкент, 1969. – 216 б.
2. В .Г. Белинский, Русские писатели о литературном труде. – Ленинград, Советский писатель, 1954. – 716 с.
3. Қўшжонов М. Абдулла Қаххор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973. – 149 б.
4. Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 372-382. [https://api.scienceweb.uz/storage/publication\\_files/2113/5268/63bf143f864ee\\_Erkin%20Vohidov%20konferensiyasi%20materiallari%2020.06.22%20](https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2113/5268/63bf143f864ee_Erkin%20Vohidov%20konferensiyasi%20materiallari%2020.06.22%20)
5. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2019. – 687 б.
6. [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org)
7. [qomus.info](http://qomus.info)

### ERKIN VOHIDOV DOSTONLARINING DRAMATURGIYADA TUTGAN O‘RNI

*To‘ychiyeva Zulayho Hamraqulovna, o‘qituvchi, Guliston davlat universiteti*  
*e-mail: [zulayxot775@gmail.com](mailto:zulayxot775@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dramaturg, jamoat arbobi Erkin Vohidov dramaturgiyasining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** dramaturgiya, qasida, she‘r, doston, badiiyat.

Erkin Vohidov o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos sehrli qalam sohibi ekanligi barchamizga ma‘lum. Uning romantik ohang va shafqatsiz realistik ruhda yo‘g‘rilgan she‘r iyatidan bahramand bo‘lgan inson buni yaqqol sezishi tabiiy. Shubilan bir qatorda shoir o‘nga yaqin dostonlar muallifidir.

Shoirning barchaga yod bo‘lgan “Do‘st bilan obod uying” (1967) hamda “O‘zbekim” qasidasida insonlarning azaliy va bir umrlik dilidagi armon, istaklar yoziladi.

Tarixingdir ming asrlar